

**O'zR FA FIZIKA-TEXNIKA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/27.02.2020.FM/T.110.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**FIZIKA-TEXNIKA INSTITUTI**

**SAMIEV KAMOLIDDIN A'ZAMOVICH**

**PASSIV QUYOSH ISITISH TIZIMLARINING  
ISSIQLIK SAMARADORLIGI**

**05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari  
asosidagi energiya qurilmalari**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**

**Contents of the of Doctoral (DSc) Dissertation Abstract**

**Samiyev Kamoliddin A'zamovich**

Passiv quyosh isitish tizimlarining issiqlik samaradorligi ..... 3

**Самиев Камолиддин Аъзамович**

Тепловая эффективность пассивных систем солнечного отопления ..... 23

**Samiev Kamoliddin A`zamovich**

Thermal efficiency of passive solar heating systems ..... 45

**E'lon qilingan ishlar ro`yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 50

**O'zR FA FIZIKA-TEXNIKA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/27.02.2020.FM/T.110.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**FIZIKA-TEXNIKA INSTITUTI**

**SAMIEV KAMOLIDDIN A'ZAMOVICH**

**PASSIV QUYOSH ISITISH TIZIMLARINING  
ISSIQLIK SAMARADORLIGI**

**05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari  
asosidagi energiya qurilmalari**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.DSc/T344 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'ZR FA Fizika-texnika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz(rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasiga (www.fti.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portaliga (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:** Avezova Nilufar Rabbanakulovna,  
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**Rasmiy opponentlar:** Kenjayev Idirisbek Gulamovich  
texnika fanlari doktori, professor

Raximov Rustam Xakimovich  
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Urishev Boborahim Urishevich  
texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'ZR FA Fizika-texnika instituti huzuridagi DSc.02/27.02.2020.FM/T.110.01 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil "29" 08 soat 10<sup>00</sup> daqiqa majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100084, O'zbekiston, Toshkent shahri, Chingiz Aytmatov ko'chasi 2b. Tel: (+99871) 235-42-91).

Dissertatsiya bilan Fizika-texnika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_\_-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100084, O'zbekiston, Toshkent shahri, Chingiz Aytmatov ko'chasi 2b. Tel: (+99871) 235-42-91).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "17" 08 kuni tarqatildi.

(2023 yil "17" 08 daqiqa 03 raqamli reestr bayonnomasi).



**X.K. Olimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
f.-m.f.d., professor

**J.S. Axatov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, t.f.d., katta ilmiy xodim

**M.N. Tursunov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., katta  
ilmiy xodim

## KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi (DSs) annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining zarurati va dolzarbligi.** Jahonda turar-joy binolarini isitish uchun energiya sarfini kamaytirish bo'yicha qayta tiklanadigan energiya manbalaridan, ayniqsa passiv quyosh isitish tizimlari va ularning tamoyillaridan foydalanish yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Jahonda tarmoqlar bo'yicha jami yakuniy energiya iste'molining 22,5 foizi (88,5 million TJ)<sup>1</sup> turar-joy sektoriga to'g'ri kelishini hisobga olib, isitish va sovutish sohasida birlamchi energiya sarfini kamaytirish imkonini beruvchi, resurslarni ularning ehtiyojlari uchun ajratish va yashil texnologiyalarni amaliy qo'llashni kengaytirish va, o'z navbatida, butun ekologik tizimga ta'sirini kamaytirishga imkon beruvchi qat'iyroq norma va qoidalarni joriy etish zarur. Shu munosabat bilan turar-joy binolarida passiv quyosh isitish tizimlaridan foydalanish katta ahamiyatga ega.

Jahonda turar-joy binolarini isitishga sarflanadigan an'anaviy energiya resurslarini tejash uchun foydalaniladigan passiv quyosh isitish tizimlarining yangi muhandislik yondashuvlarini hamda ilmiy-texnik yechimlarini ishlab chiqish va izlashga qaratilgan tadqiqot ishlari olib borilmoqda<sup>2,3</sup>. Shu munosabat bilan turar-joy binolari va ularga integratsiya qilingan passiv quyosh isitish tizimlarining statik va dinamik matematik modellarini ishlab chiqish, yillik xususiyatlarini baholash, issiqlik akkumulyatorlarining yangi turlarini tanlash va ularning optimal joylashuvi, geometrik va issiqlik parametrlarining optimal va ratsional qiymatlarini aniqlash dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ko'p mezonli optimallashtirish usullarini qo'llagan holda texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni, jumladan tizimning issiqlik ko'rsatkichlarini aniqlash uchun laboratoriya va tabiiy sharoitda o'tkaziladigan tajriba usullarini ishlab chiqish, shuningdek, passiv isitish tizimlarining optimal ishlashini asoslash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda turar-joy binolarini isitish uchun energiya sarfini kamaytirish maqsadida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida"<sup>4</sup>, jumladan "uy-joy-kommunal xo'jaligi, ijtimoiy soha ob'yektlari va boshqa sohalarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va energiya samaradorligini oshirish" vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda turar-joy binolariga passiv quyosh isitish tizimlarini integratsiya qilish, ularning parametrlarini optimallashtirish, issiqlik xossalarini hisoblashning takomillashgan uslubiyatini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqotlari O'zbekiston Respublikasining "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonunida, O'zbekiston

<sup>1</sup> <https://www.iea.org/data-and-statistics/data-tools/energy-statistics-data-browser?country=WORLD&fuel=Energy%20consumption&indicator=TFCShareBySector>

<sup>2</sup> Gupta N., Tiwari G.N. Review of passive heating/cooling systems of buildings // Energy Science & Engineering. – 2016. – Vol.4, №5. – pp.305-333.

<sup>3</sup> Wang D., Hu L., Du H., Liu Y., Huang J., Xu Y., Liu J. Classification, experimental assessment, modeling methods and evaluation metrics of Trombe walls // Renewable and Sustainable Energy Reviews. – 2020. – Vol.124. 109772.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni

Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22 avgustdagi PQ-4422-son “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejoyvchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-sonli “Energiya tejoyvchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni hamda ushbu sohada qabul qilingan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining IV. “Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish usullarini ishlab chiqish, nanotexnologiya, fotonika va boshqa zamonaviy texnologiyalar asosida yangi texnologiyalar va qurilmalar ishlab chiqish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi**<sup>5</sup>. Quyosh energiyasini passiv isitish tizimlarida issiqlikka aylantirish va to‘planishning nazariyasi va amaliyotini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar dunyoning ko‘plab ilmiy markazlarida olib borilmoqda.

Fransiyaning Quyosh energiyasi laboratoriyasi issiqlik akkumulyatsiyalovchi devorga ega quyosh uyini ishlab chiqdi va qurdi. Portugaliyaning Tras-os-Montes va Alto Doru universitetlarida olimlar Tromb devorining issiqlik xususiyatlarini tajriba va sun‘iy intellekt bilan ma‘lumotlarni tahlil qilish usuli orqali ichki harorat va issiqlik oqimini bashorat qilishni o‘rganib masofaviy boshqaruv tizimlarini ishlab chiqmoqdalar. Gonkong politexnika universitetida (Xitoy) hisoblash gidrodinamikasi usullaridan foydalanib, ikki qavatli quyosh fasadining vertikal havo quvurlarida tabiiy konvektsiya sharoitida havo oqimi va issiqlik uzatish xususiyatlari o‘rganilmoqda. Tunis energiya tadqiqot va texnologiya markazi Issiqlik jarayonlari laboratoriyasida turli binolar uchun turli xil issiqlik almashinuvi elementlarini joriy etish orqali Tromb devorining samaradorligini oshirish ustida ishlanmoqda. Hindiston Texnologiya Institutining Energetika tadqiqot markazi va Texnika Universiteti (Hindiston) larida bino tashqi to‘siqlarini optimallashtirish uchun passiv quyosh isitish tizimlaridan foydalanish va ularning Hindistondagi binolarga qo‘yiladigan talablari o‘rganilmoqda. Xususan, Osaka telekommunikatsiya universiteti (Yaponiya), Gonkong politexnika universiteti (Gonkong), Delft texnologiya universiteti (Niderlandiya), Afina milliy texnika universiteti (Gretsiya), Sidney universiteti (Avstraliya), Lleyda universiteti (Ispaniya), Nitsa Sophia Antipolis universiteti (Frantsiya), Otaturk universiteti (Turkiya) issiqlik ta‘minoti tizimlari

---

<sup>5</sup> Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalarga asoslanadi: Daffie J.A., Beckman W.A. Solar Engineering of Thermal Processes. Fourth Edition. – Madison, New York: John Wiley & Sons, Inc., – 2013. P.944.; Classification, experimental assessment, modeling methods and evaluation metrics of Trombe walls // Renewable and Sustainable Energy Reviews. – 2020. – Vol.124. 109772.; Review of passive heating/cooling systems of buildings // Energy Science & Engineering. – 2016. – Vol.4, №5. – pp.305-333.; Trombe walls: a review of opportunities and challenges in research and development // Renewable and Sustainable Energy Reviews. – 2012. – Vol.16. – P.6340-6351.; A review on the application of Trombe wall system in buildings // Renewable and Sustainable Energy Reviews. – 2017. – Vol.70. – P.976–87.

ehtiyojlari uchun fazaviy o'tish materiallaridan foydalangan holda quyosh energiyasini akkumulyatsiya qilish jarayonlarini o'rganmoqdalar.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Passiv quyosh isitish tizimini ishlab chiqish va tadqiq qilish bilan dunyoning E.Morse, J.A.Duffi, J.D. Balkomb, S.A. Klein (AQSh), S.-Y. Wu, V. He, X. Zhang (Xitoy), A.E. Morgan, H.B. Awbi (Buyuk Britaniya) F. Trombe, L. Zalevski (Fransiya), V.B. Veynberg, N.P. Selivanov, E.V. Sarnatskiy, O.S. Popel (Rossiya), E. Tasdemiroglu (Turkiya), G.N. Tiwari, M.S. Sodha, C.L. Gupta (Hindiston), R.B. Bayramov, K. Toyliiev (Turkmaniston) kabi yetakchi olimlari shug'ullangan.

T. Shi, A.D. Garsiya, G. Zhou, Y.A. Kara va boshqalar passiv quyosh isitish tizimlariga turli xil issiqlik akkumulyatorlarini qo'llash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazganlar. F.Martin-Konsuegra, A. Briga Sa, F. Abbasi, S. Jaber passiv quyosh isitish tizimlarining yangi turlarini ishlab chiqish, ularning geometrik va issiqlik-texnikaviy parametrlarini optimallashtirish, ularning issiqlik hisobi uchun ilmiy asoslarini ishlab chiqish va rivojlantirish, shuningdek ularning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholash bo'yicha tadqiqotlar olib borganlar.

Respublikamizda passiv quyosh isitish tizimlarining issiqlik-texnikaviy, geometrik va rejim parametrlarini asoslash bo'yicha tadqiqotlar R.R. Avezov, N.R. Avezova, Yu.K. Rashidov, M.M. Zoxidov, M. Kenisarin, K.B. Babaqulov, O. Azimov, A.S. Dusyarov, Sh.B. Imomov va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Yuqoridagi tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan passiv quyosh isitish tizimlari turar-joy binolarini isitish tizimlari uchun energiya tejash nuqtai nazaridan ma'lum ijobiy natijalar bilan qo'llanilsa-da, lekin passiv quyosh isitish tizimlarining geometrik va issiqlik parametrlari hududning iqlimiy ma'lumotlariga asoslangan ko'p mezonli optimallashtirish usuli yordamida optimallashtirilmagan. Passiv quyosh isitish tizimlarining energiya, iqtisodiy va ekologik ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda yillik resurs ko'rsatkichlarini oqilona qiymatlarni aniqlash, baholash va asoslash bo'yicha tadqiqotlar yetarli darajada amalga oshirilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti «Fizika-Quyosh» IChB ning Fizika-texnika institutida O'zR FA ning  $\Phi 3-\Phi A-0-050940$  fundamental tadqiqotlar dasturiga kiruvchi "Quyoshiy insolyatsion isitish tizimlari va termodinamik qayta o'zgartirgichlarining issiqlik-texnikaviy va dinamik tavsiflarini tadqiq qilish" ilmiy loyihasida va O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Fizika-texnika institutining bazaviy moliyalashtirish dasturi doirasidagi "Quyosh energiyasini issiqlikka aylantirishning fizikaviy asoslarini rivojlantirish hamda geliotexnik qurilmalarning energosamarador konstruksiyalarini ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** passiv quyosh isitish tizimiga ega turar-joy binolarining asosiy konstruktiv va issiqlik-texnikaviy parametrlarining ratsional qiymatlarini O'zbekiston iqlimi sharoitida aniqlash uchun mazkur tizimlarda sodir bo'ladigan issiqlik jarayonlarining matematik modelini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

passiv quyosh isitish tizimlarini turar-joy binolarida qo'llash maqsadida ilgari olib borilgan tadqiqot ishlarining tadqiqot natijalari, ularning issiqlik parametrlarining

optimal qiymatlarini aniqlash uchun matematik modellar ishlab chiqish va tajribalar o'tkazish bo'yicha mavjud ilmiy-texnik yechimlarni tanqidiy tahlil qilish;

4 xonali qishloq uyining namunaviy loyihasi misolida statik matematik modelni ishlab chiqish asosida O'zbekiston Respublikasi iqlimini hisobga olgan holda passiv quyosh isitish tizimlarining yillik samaradorligini baholash;

dinamik matematik modelni ishlab chiqish asosida faza o'zgartiruvchi issiqlik akkumulyatorlari yordamida passiv quyosh isitish tizimlarining yillik samaradorligini baholash;

"Massiv devor", "Issiqlik akkumulyatorli massiv devor" va "Energiyani tejoyvchi oyna blokli massiv devor" kabi passiv quyosh isitish tizimlarining issiqlik xossalarini aniqlash maqsadida tabiiy sharoitda tajriba tadqiqotlari o'tkazish;

"Massiv devor" tipidagi passiv quyosh isitish tizimining geometrik va issiqlik parametrlarining oqilona qiymatlarini, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda, ko'p mezonli optimallashtirish usuli bilan aniqlash.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida turar-joy binolarida shamollatiladigan va shamollatilmaydigan havo qatlami bo'lgan "To'g'ridan-to'g'ri nurlanish" va "Massiv devor" turlarining passiv quyosh isitish tizimlari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** «Massiv devor» va «To'g'ridan-to'g'ri nurlanish» turdagi passiv quyosh isitish tizimlarida quyosh nurlanishining issiqlik energiyasiga aylantirish jarayonlari hamda passiv quyosh isitish tizimlariga ega turar-joy binolarida sodir bo'ladigan issiqlik jarayonlarini modellashtirish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida passiv quyosh isitish tizimlari va ularning elementlarida quyosh nurlanish energiyasini issiqlikka aylantirishning fizik modelidan foydalanildi, sonli hisoblashlarda issiqlik texnikasining nazariy asoslari, ko'p mezonli optimallashtirish va faktorli tahlil usullari qo'llanildi. Passiv quyosh isitish tizimlarining asosiy issiqlik parametrlarini issiqlik jarayonlarini modellashtirish va tabiiy sharoitda o'tkazilgan tajribaviy tadqiqotlar orqali o'rganildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

"To'g'ridan-to'g'ri nurlanish" turdagi passiv quyosh isitish tizimlariga ega bo'lgan turar-joy binolarining issiqlik xususiyatlarini hududning iqlim sharoitini hisobga olgan holda aniqlash imkonini beruvchi bino issiqlik rejimining matematik modeli taklif etilgan;

umumiy fasad yuzasining 24% Tromb devori bo'lgan "Massiv devor" tipidagi passiv quyosh isitish tizimiga ega turar joy binosining issiqlik rejimini hamda foydalanish muddatining narxini inobatga olib, turli passiv elementlarni qo'llash samaradorligini hududning iqlimiy ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda baholash imkonini beruvchi matematik model ishlab chiqilgan;

turar-joy binosiga birlashtirilgan "Issiqxona" tipidagi passiv quyosh isitish tizimlarida sodir bo'ladigan nostatsionar issiqlik jarayonlarini hududning aktinometrik va iqlimiy ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda, hisoblash imkonini beruvchi matematik model ishlab chiqilgan;

Tromb devori bilan passiv quyosh isitish tizimlariga ega turar-joy binolarining solishtirma issiqlik xossalarini bino fasadining yo'nalishi, shaffof to'siqning solishtirma issiqlik qarshiligi, Tromb devori yuzasining fasad yuzasiga nisbati va massa sarfi orqali aniqlash imkonini beruvchi approksimatsiyalovchi ifoda olingan;

ko'p parametrli optimallashtirish va faktorli tahlil usulidan foydalangan holda, bino fasadining yo'nalishi, shaffof to'siqning solishtirma issiqlik qarshiligi, Tromb devori yuzasining fasad yuzasiga nisbati va massa sarfining optimal kombinatsiyasi aniqlangan;

“To'g'ridan-to'g'ri nurlanish” va “Massiv devor” turdagi passiv quyosh isitish tizimlari uchun tizimning issiqlik yo'qotilishini mavjud analoglarga nisbatan 23,8% dan 61,4% gacha kamaytirish imkonini beruvchi energiya tejovchi oyna bloki ishlab chiqilgan;

Gradus-sutka usulidan foydalangan holda, O'zbekistonning besh hududi uchun passiv quyosh isitish tizimiga ega turar-joy binolarining tashqi devorlari izolyatsiya qatlami qalinligining optimal qiymati aniqlangan. Bunda, passiv quyosh isitish tizimlariga ega binolar uchun energiya tejamkor va iqtisodiy jihatdan maqbul devor issiqlik izolyatsiyasi qatlamining qalinligi passiv element sifatida qaralib, isitish va sovutish davrining gradus-sutkasi qiymatlariga ko'ra 1,9 sm dan 5 sm gacha bo'lishi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

passiv quyosh isitish tizimlarining yangi avlodlarini yaratish uchun passiv quyosh isitish tizimlariga ega turar-joy binolarini isitish ehtiyojlariga sarflanadigan solishtirma energiya sarfi qiymatining optimal issiqlik-texnikaviy va geometrik parametrlarini hisobga olgan holda regressiya bog'liqligi olingan;

tajribaviy tadqiqotlar davomiyligini sezilarli darajada qisqartirishi va ularning asosiy issiqlik-muhandislik parametrlarining qiymatlarini aniqlashi mumkin bo'lgan passiv quyosh isitish tizimiga ega turar-joy binolarining isitish tizimlarida solishtirma energiya sarfini aniqlash usuli ishlab chiqilgan;

Tromb devorli passiv quyosh isitish tizimlariga ega turar-joy binolarining energiya, iqtisodiy va ekologik xususiyatlarini aniqlash imkonini beruvchi muhandislik hisoblash usuli taklif etilgan; Passiv quyosh isitishning o'rtacha yillik issiqlik samaradorligi qiymatlari, ularning texnik-iqtisodiy va ekologik ko'rsatkichlari aniqlangan, turar-joy binolarida ulardan foydalanishning oqilona muddatlari tavsiya etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** umume'tirof etilgan zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanilganligi, tabiiy sharoitda o'tkazilgan tajribalarning sinalgan usullar va vositalar asosida o'tkazilishi, olingan natijalarning hisobiy natijalarga mosligi bilan tasdiqlanadi. Dissertatsiyada keltirilgan ilmiy xulosalar, tavsiyalar va natijalar mazkur sohada ma'lum bo'lgan natijalarni inkor etmaydi, balki to'ldiradi va kengaytiradi. Natijalarni tayyorlash, tahlil qilish va ta'riflash ma'lumotlar bilan ishlash va statistik tahlil usullariga asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati** shundan iboratki, tadqiqot natijalari issiqlik jarayonlarini modellashtirish, issiqlik hisobining nazariyasi va amaliyoti hamda issiqlik akkumulyatorlari yordamida passiv quyosh isitish tizimlari parametrlarini optimallashtirishga katta hissa qo'shadi.

Passiv quyosh isitish tizimlarining asosiy issiqlik-texnikaviy hamda geometrik parametrlarini optimallashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan usullarni amaliyotga tatbiq etish, respublikada mahalliy iqlimni inobatga olgan holda passiv binolarni loyihalash

uchun yangi texnik yechimlar va muhandislik yondashuvlarini yaratish imkonini berishi bilan izohlanadi.

Passiv quyosh isitish tizimlarining solishtirma issiqlik xossalarini aniqlash va CO<sub>2</sub> chiqindilarini kamaytirish bo'yicha tadqiqotlar natijalari respublika vazirliklari va idoralari tomonidan turar-joy va ijtimoiy-maishiy binolarda passiv quyosh isitish tizimlaridan foydalanish hisobiga an'anaviy yoqilg'i-energetika resurslarini tejash va atrof-muhitga CO<sub>2</sub> chiqindilari chiqishini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar rejalashtirishda foydalanilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Respublika bino va inshootlarida foydalanish uchun passiv quyosh isitish tizimlari parametrlarini o'rganishda olingan natijalarga asosan:

FAP 01883 "Energiya tejoychi oyna bloki" asosida ishlab chiqilgan qurilma "Tashelektromash" MChJdagi "Mir-solar" MChJ ma'muriy binosida amaliyotga joriy etilgan ("O'zeltexsanoat" AJning 2022-yil 21-noyabrdagi 04-3/2404-son ma'lumotnomasi). Energiya tejoychi oyna blokiga ega passiv quyosh isitish tizimidan foydalanish natijasida, yilning isitish davrida, birlamchi yoqilg'i-energetika resurslarini 30 % dan ortiq tejash imkonini bergan;

Passiv quyosh isitish tizimlari uchun energiya tejoychi oyna blokida o'tkazilgan tajriba natijalari O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi V.I. Romanovski nomidagi Matematika institutida bajarilgan  $\text{E}\Phi\text{A}-\Phi\text{Tex}-2018-13$  «Singulyar integral tenglamalarni taqribiy-analitik yechish uchun optimal algoritmlar» loyihasini bajarishda foydalanilgan (O'zR FA V.I. Romanovski nomidagi Matematika institutining 2023 yil 17 maydagi ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish loyiha doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlarni yuqori aniqlikda amalga oshirish imkonini bergan;

«Issiqxona» tipidagi passiv quyosh isitish tizimining issiqlik xarakteristikallari va samaradorligini o'rganish natijalari bir qator xorijiy tadqiqotlarda qo'llanilgan [Sustainability, 12, 2794, 2020, IF: 5.0; Acta Mathematica Sinica, English Series, 37(7), 1066-1088, 2021, IF:1,2; Applied Solar Energy, 51(2), 107-111, 2015, IF:2.5 va boshqalar], natijada, turli xil konstruksiyalarni tahlil qilish, "issiqxona" tipidagi passiv quyosh isitish tizimlarining texnik va iqtisodiy xususiyatlarini optimallashtirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 7 ta xalqaro konferensiya va simpoziumlarda hamda 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 33 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta (10 ta xalqaro va 3 ta respublika jurnallarida) maqola nashr etilgan, 13 ta xalqaro va respublika miqyosidagi konferentsiyalar materiallarida tezislari chop qilingan, 1 ta foydali model uchun patent va EHM lar uchun 6 ta dasturiy mahsulotga guvohnoma olingan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va 2 ta ilovadan, 102 ta rasm va 28 ta jadvaldan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 184 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'jekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Passiv quyosh isitish tizimlarining issiqlik parametrlari va asosiy konstruktorlik yechimlari" nomli **birinchi bobida** mavjud passiv quyosh isitish tizimlarining loyihaviy yechimlarining tanqidiy tahlili o'tkazildi, ularning asosiy issiqlik-texnikaviy parametrlari tadqiq etildi, shaffof qoplamalar orqali o'tadigan quyosh nurlanishining qisman yutilishi va issiqligiga aylanishining ularning issiqlik yo'qotish koeffitsienti va issiqlik samaradorligiga ta'siri o'rganildi va shu asosda tadqiqot muammolari bayoni shakllantirildi.


Dissertatsiyaning "Passiv quyosh isitish tizimlarining statsionar issiqlik rejimini matematik modellashtirish" nomli **ikkinchi bobida** "To'g'ridan-to'g'ri nurlanish" va "Massiv devor" tipidagi passiv quyosh isitish tizimlarining issiqlik xossalari bo'yicha statik matematik modellardan foydalangan holda tadqiqot natijalari keltirilgan. Ishlab chiqilgan matematik modellar eksperimental natijalar bilan taqqoslash yo'li bilan sinovdan o'tkazilgan. Tadqiqotlar, asosan, to'rt xonali turar-joy binosining issiqlik xususiyatlarini va unga birlashtirilgan ventilyatsiya qilingan va ventilyatsiyalanmaydigan Tromb devorini o'rganishga bag'ishlangan. Ko'rib chiqilayotgan turlardagi passiv quyosh isitish tizimlarining energiya va ekologik nuqtai nazardan tahlili o'tkazilgan.

1-rasmda O'zbekistonning turli iqlim hududlari uchun isitish mavsumida Tromb devorlarining ko'rib chiqilayotgan turlari bo'yicha issiqlik kirishi va issiqlik yo'qotilishi va oddiy devorlar orqali issiqlik yo'qotishlarining farqini aniqlash bo'yicha hisob-kitoblar natijalari ko'rsatilgan. Tromb devori tizimidan foydalanganda issiqlik yo'qotishlari o'rniga foydali issiqlik oqimi kuzatiladi. Nukus shahri mamlakat shimolida joylashgan bo'lib, u yerda atrof-muhit harorati isitish mavsumida boshqa hududlarga nisbatan pastroq bo'lishiga qaramay, yig'indi quyosh radiatsiyasi quyosh balanadlining kamayishi hisobiga foydali issiqlik boshqa hududlarga nisbatan ko'proq bo'ladi. Barcha ko'rib chiqilgan iqlim zonalarida foydali issiqlik oqimlari ventilyatsiyalanadigan Tromb devorlarida ventilyatsiyalanmaydigan Tromb devorlariga qaraganda 55-65% yuqori bo'ladi.

Hisoblash natijalari shuni ko'rsatadiki, turar-joy binosining janubiy devorini Tromb devori bilan qoplashda binolarning issiqlik yuklanishi issiqlik himoyasining birinchi, ikkinchi yoki uchinchi darajalarida respublikaning mos ravishda, shimoliy hududlarida 9-17 foizga, janubiy viloyatlarida esa 21-34 foizga kamayadi (2-rasm).




1-rasm. Tromb devorining ko'rib chiqilgan turlari bo'yicha issiqlik kirishi va issiqlik yo'qotishi hamda isitish davrida oddiy devorlar orqali issiqlik yo'qotishidagi farq




2-rasm. Respublika hududlarida joylashgan tipik 4 xonali turar-joy binolarida isitish uchun solishtirma energiya sarfining hisoblangan ko'rsatkichlari

Dissertatsiyaning “Passiv quyosh isitish tizimlarining stasionar bo‘lmagan issiqlik rejimini matematik modellashtirish” nomli **uchinchi bobida** “To‘g‘ridan-to‘g‘ri nurlanish”, “Massiv devor” va “Issiqxona” tipidagi passiv quyosh isitish tizimlarining issiqlik xossalari dinamik modellashtirish orqali aniqlangan. Chegaraviy shartlarning murakkabligi tufayli differensial tenglamalar sonli usullar yordamida, chekli ayirma usuli bilan yechilgan va hisoblashlar Python va Mathcad dasturiy muhitlarida amalga oshirilgan.



3-rasm. Tromb devorili passiv quyosh isitish tizimi uchun elektrotermik analogiya sxemasi.



4-rasm. Faza o'tish materialiga ega Tromb devorili passiv quyosh isitish tizimi uchun elektrotermik analogiya sxemasi

Ichki havo uchun issiqlik balansi tenglamalari

$$C_a \dot{T}_a = U_w(T_o - T_a) + U_{s1}(T_s - T_a) + U_{w1}(T_w - T_a) + U_{n1}(T_n - T_a) + U_{e1}(T_e - T_a) + U_{Fl1}(T_{Fl} - T_a) + U_{R1}(T_R - T_a) + Q_s + Q_{gain} \quad (1)$$

bunda  $C_a$ - ichki havoning issiqlik sig'imi, J/K;  $T_a$ - ichki havo harorati, °C;  $U_w$ - derazalar orqali issiqlik uzatish koeffitsienti, W/°C;  $T_o$ - atrof-muhit harorati, °C;  $U_{s1}$ ,  $U_{w1}$ ,  $U_{n1}$ ,  $U_{e1}$ ,  $U_{Fl1}$ ,  $U_{R1}$ - janubiy, g'arbiy, shimoliy, sharqiy devor, pol va tomning ichki qismidagi issiqlik uzatish koeffitsienti, W/K;  $T_s$ ,  $T_w$ ,  $T_n$ ,  $T_e$ ,  $T_{Fl}$ ,  $T_R$ - janubiy, g'arbiy, shimoliy, sharqiy devorlar, pol va tomlarning o'rtacha harorati, °C;  $Q_s$ - kiruvchi quyosh radiatsiyasi, W;  $Q_{gain}$ - Tromb devoridan olingan issiqlik quvvati, W.

Janubiy devor uchun issiqlik balansi tenglamalari

$$C_s \dot{T}_s = U_{s1}(T_a - T_s) + U_{s2}(T_f - T_s) + Q_{ss} \quad (2)$$

bunda  $C_s$ - janubiy devorning issiqlik sig'imi, J/K;  $U_{s2}$ - janubiy devorning tashqi qismining issiqlik uzatish koeffitsienti, W/°C;  $T_f$ - Tromb devoridan chiqadigan havo harorati, °C;  $Q_{ss}$ - janubiy devorda yutilgan quyosh radiatsiyasi, W.

Sharqiy devor uchun issiqlik balansi tenglamalari

$$C_e \dot{T}_e = U_{e1}(T_a - T_e) + U_{e2}(T_o - T_e) + Q_{se} \quad (3)$$

bunda  $C_e$ - sharqiy devorning issiqlik sig'imi, J/K;  $U_{e2}$ - sharqiy devorning tashqi qismining issiqlik uzatish koeffitsienti, W/°C;  $Q_{se}$ - sharqiy devorda yutilgan quyosh nurlanishi, W.

G'arbiy devor uchun issiqlik balansi tenglamalari

$$C_w \dot{T}_w = U_{w1}(T_a - T_w) + U_{w2}(T_o - T_w) + Q_{sw} \quad (4)$$

bunda  $C_w$ - g'arbiy devorning issiqlik sig'imi, J/K;  $U_{w2}$ - g'arbiy devorning tashqi qismining issiqlik uzatish koeffitsienti, W/°C;  $Q_{sw}$ - g'arbiy devorda yutilgan quyosh radiatsiyasi, W.

Shimoliy devor uchun issiqlik balansi tenglamalari

$$C_n \dot{T}_n = U_{n1}(T_a - T_n) + U_{n2}(T_o - T_n) + Q_{sn} \quad (5)$$

bunda  $C_n$ - shimoliy devorning issiqlik sig'imi, J/K;  $U_{n2}$ - shimoliy devorning tashqi qismining issiqlik uzatish koeffitsienti, W/°C;  $Q_{sn}$ - shimoliy devorda yutilgan quyosh radiatsiyasi, W.

Pol uchun issiqlik balansi tenglamalari

$$C_{Fl} \dot{T}_{Fl} = U_{Fl1}(T_a - T_{Fl}) + U_{Fl2}(T_e - T_{Fl}) + Q_{sFl} \quad (6)$$

bunda  $C_{Fl}$ - polning issiqlik sig'imi, Дж/K;  $U_{Fl2}$ - poldan atrofga issiqlik uzatish koeffitsienti, W/°C;  $Q_{sFl}$ - polda yutilgan quyosh radiatsiyasi, W.


Tom uchun issiqlik balansi tenglamalari

$$C_R \dot{T}_R = U_{R1}(T_a - T_R) + U_{R2}(T_o - T_R) + Q_{sR} \quad (7)$$


bunda  $C_R$ - tomning issiqlik sig'imi, J/K;  $U_{R2}$ - tomning tashqi qismining issiqlik uzatish koeffitsienti, BT/°C;  $Q_{SR}$ - tomda yutilgan quyosh radiatsiyasi, W.

(1)-(7) tenglamalar Gauss-Zaydel usuli yordamida sonli yechilgan. Chegaraviy shartlar sifatida atrof-muhit harorati va eksperimental ob'yekt elementlarining tashqi yuzalarida tushayotgan quyosh radiatsiyasining kunlik o'zgarishi olingan.

5-rasmda ichki havo haroratining hisoblash natijalari va eksperimental ma'lumotlarni taqqoslandi: o'rtacha kvadratik xatolik (RMSE) 2,72°C va  $R^2 = 0,95$ . 6-rasmda binolarning solishtirma issiqlik iste'molining oylik natijalari ko'rsatilgan: tipik bir qavatli to'rt xonali turar-joy binosi, Tromb devoriga ega tipik bir qavatli to'rt xonali turar-joy binosi, issiqlik akkumulyatorlariga ega Tromb devorili tipik bir qavatli to'rt xonali turar-joy binosi.



5-rasm. Xona ichidagi havo haroratining kunlik o'zgarishi:  $T_a$ -hisobiy;  $T_{a\_эксп}$ -tajribaviy.



6-rasm. Oddiy to'rt xonali turar-joy binosini oylar bo'yicha isitish uchun solishtirma energiya sarfi: 1- tipik to'rt xonali turar-joy binosi; 2 - klassik turdagi Tromb devorili tipik to'rt xonali turar-joy binosi; 3 - fazali o'tish issiqlik akkumulyatorlariga ega Tromb devorili tipik to'rt xonali turar-joy binosi.

Hisoblashlar natijalari shuni ko'rsatadiki, bir qavatli uch xonali turar-joy binosini isitish uchun solishtirma issiqlik iste'moli 211,6 kW·soat /( $m^2 \cdot$  yil) ni tashkil qiladi, bu adabiyotda berilgan ma'lumotlardan o'rtacha 3-10% bilan qiladi.

Faqat Tromb devori bo'lgan bunday ob'ektda isitish uchun solishtirma energiya sarfi 134,34 kW·soat/ $m^2 \cdot$  yilga teng. Fazali o'tish materialiga ega bo'lgan bunday tizimdan foydalanib, solishtirma energiya sarfini 91,8 kW/ $m^2 \cdot$  yilga kamaytirish mumkin (6-rasm).


Fazali o'tish materialiga ega Tromb devorini qoplash muddati 12,9 yil. Karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirish miqdori 70 kg/ $m^2$  ni tashkil qiladi.

"Passiv quyosh isitish tizimlarining asosiy issiqlik parametrlarini va issiqlik rejimlarini aniqlash uchun eksperimentlar o'tkazish va natijalarini qayta ishlash" deb nomlangan **to'rtinchi bob**da kichik o'lchamli eksperimental qurilmalarda tabiiy sharoitlarda eksperimental tadqiqotlar natijalarini taqdim etilgan. Tajribalar asosan passiv quyosh isitish tizimlarida, masalan, "To'g'ridan-to'g'ri nurlanish" va "Massiv devor" va energiya tejovchi oyna bloklarda o'tkazildi. Tajriba obyektlarida shaffof


qatlam sifatida oddiy deraza oynasi, polietilen plyonkadan foydalanilgan. Issiqlik akkumulyatori sifatida beton devor va fazali o'tish materiallari ishlatilgan.

Tromb devorining sxematik diagrammasi 7-rasmda ko'rsatilgan. Fizik modelning balandligi 0,6 m, eni 0,6 m, uzunligi 1 m, qora bo'yoq bilan bo'yalgan (radiatsiya yutilish koeffitsienti  $\alpha_{st}=0,8$ ) janubiy beton devorining qalinligi 6 sm. Beton devor (2) pastki va yuqori qismida 1,5 sm balandlikdagi tirqishlar qoladigan tarzda joylashgan. Janubiy devordan 1,5 sm masofada 4 mm qalinlikdagi bir qatlamli shaffof to'siq (1) joylashgan. Qolgan elementlar ichki tomondan 4 sm qalinlikdagi penoplast (3) va tashqi tomondan yog'och (4) bilan qoplangan. Barcha o'lchamlar o'xshashlik nazariyasiga ko'ra tanlanadi. Devorlarning issiqlik qarshiligi issiqlik izolyatsiyasining birinchi darajasiga teng. Ko'rib chiqilayotgan ob'ektning turli joylarida haroratni o'lchash uchun Arduino DS18B20 raqamli harorat sensorlari joylashgan. O'lchov xatosi -10 dan +85 ° C gacha bo'lgan haroratlar uchun 0,5 ° C dan oshmaydi. Oqim zichligini o'lchash uchun tushayotgan yig'indi quyosh radiatsiyasi PVA-1000SPV dan foydalanib o'lchangan.

8-rasmda keltirilgan eksperiment natijalaridan ko'rinib turibdiki atrof-muhit haroratining maksimal qiymati taxminan 6-7°C bo'lganida, ob'ektlardagi maksimal harorat mos ravishda 40°C (issiqlik akkumulyatori bo'lmagan ob'ekt), 34°C (Trombe devori bo'lgan ob'ekt), 25°C (beton devorlari bo'lgan ob'ekt) ni tashkil qiladi. Yengil tuzilishga ega bo'lgan ob'yektda ichki havo harorati quyosh botgandagi atrof-muhit haroratiga teng. Beton devorli xonada bu holat tungi soat ikkidan ertalabgi soat oltigacha kuzatiladi.



7-rasm. Tromb devorili passiv quyosh isitish tizimining sxematik diagrammasi. 1-shaffof to'siq; 2-janubiy beton devor; 3-izolyatsiya qatlami; 4-to'siqlarning tashqi qismi; 5-Arduino; 6- kompyuter; 7-fazali issiqlik akkumulyatorlari; • - harorat sensorlari




8-rasm. Tajribalar natijalari (11-13.11.2021y.): D6 - Tromb devorili passiv quyosh isitish tizimi ichki havosining harorati; D9 - atrof-muhit harorati; D16 - issiqlik akkumulyatori bo'lmagan ob'ekt ichki havosining harorati.

Ushbu tajribada ko'rib chiqilayotgan ventilyatsiyalanadigan Tromb devorili tizimning foydali ish koeffitsiyenti quyosh nurlanishi 7,1 MJ bo'lganda 21,2% ni tashkil qiladi. Konveksiya va havo oqimi bilan uzatiladigan issiqlik miqdori 1,5 MJ ga teng.


Keyingi tajribada ventilyatsiyalanadigan va ventilyatsiyalanmaydigan Tromb devori tizimlarining issiqlik xarakteristikallari o'rganildi. 9-rasmda keltirilgan tajriba

natijalariga ko'ra, Trombe devori bo'lgan ventilyatsiya qilingan ob'ektdagi havo harorati kun davomida 2-6°C yuqori bo'ladi.

Keyingi tajribada fazali o'tish issiqlik akkumulyatorlari bo'lgan Tromb devorili obyekt va issiqlik akkumulyatori bo'lmagan ob'ekt o'rtasida qiyosiy tadqiqotlar o'tkazildi. 10-rasmdan ko'rinib turibdiki, fazali o'tish materialli tajriba qurilmasidagi ichki havo haroratining maksimal qiymati 10°C atrof-muhit haroratida 35°C ni tashkil qiladi. Fazali o'tish materialsiz eksperimental qurilmada maksimal ichki havo harorati 40°C dan oshadi. Fazali o'tish issiqlik akkumulyatoriga ega bo'lmagan ob'ektda xona havosining harorati taxminan 0:00 atrof-muhit haroratiga teng bo'ladi, ikkinchi ob'ektda esa bu holat 03:30 ga to'g'ri keladi. Ushbu tajribalarda janubiy devorning frontal yuzasiga tushgan yig'indi quyosh radiatsiyasining maksimal qiymati 800 W/m<sup>2</sup> ni tashkil etdi.



9-rasm. Tajribalar natijalari (8-11.01.2022y.): D7 - Tromb devorili ob'ektning ichki havosining harorati; D8 - issiqlik akkumulyatori bo'lmagan ob'ekt ichki havosining harorati; D13 - beton devorli ob'ekt ichki havosining harorati; D14 - atrof-muhit harorati.



10-rasm. Tajribalar natijalari (16-18.02.2022y.): D9 - fazali o'tish materiallari bo'lgan ob'ekt ichki havosining harorati; D15 - fazali o'tish material bo'lmagan ob'ekt ichki havosining harorati; D16 - atrof-muhit harorati.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, ventilyatsiya qilinadigan suvli issiqlik akkumulyatorlariga ega Tromb devorining (energiya tejovchi oyna bloki) issiqlik samaradorligi 42% ni tashkil qiladi. Bunday holda, qurilma yuzasiga o'rtacha soatlik jami quyosh radiatsiyasi 0,8 MJ ni tashkil etdi. Albatta, devor va shaffof qatlam o'rtasida joylashgan batareya qurilmalari havo harakatiga to'sqinlik qilishini hisobga olish kerak. Shu sababli, energiya tejovchi oyna blokidan chiqadigan havo harorati an'anaviy tizimga qaraganda 5-6°C yuqori bo'ladi.



"Passiv quyosh isitish tizimlarining energetik, iqtisodiy va ekologik ko'rsatkichlari" deb nomlangan **beshinch** bobda issiqlik izolyatsiya qatlami qalinligining optimal yoki oqilona qiymatini aniqlash bo'yicha va ko'p mezonli optimallashtirish usullaridan foydalanib passiv quyosh isitish tizimi elementlarining geometrik va issiqlik-texnikaviy parametrlari qiymatlarining optimal yoki oqilona qiymatlarini aniqlashga bag'ishlangan tadqiqot natijalari keltirilgan.



a)

b)


11-rasm. Issiqlik akkumulyatori suv bo'lgan issiqlik akkumulyatsiyalovchi devorning issiqlik xususiyatlarini aniqlash bo'yicha eksperimental qurilma (energiya tejovchi oyna bloki): a-old ko'rinish; b-orqa tomondan ko'rinish.



12-rasm. Passiv quyosh isitish tizimlarining eksperimental foydali ish koeffitsiyenti (FIK): A - ventilyatsiya qilinadigan Tromb devori; B-ventilyatsiya qilinadigan Tromb devori keramika + plyonkali kompozit material bilan; C - ventilyatsiyalanmaydigan Tromb devori; D - fazali o'tish materiallarili Tromb devori; E - energiya tejovchi oyna bloki.

13-rasm. Foydalanish davri narxining bino issiqlik izolatsiyasining uchta darajasida maydonlar nisbatiga (Tromb devorining sirtining tashqi devorning umumiy yuzasiga nisbati) bog'liqligi: 1,2,3 - mos ravishda issiqlik himoyasining birinchi, ikkinchi va uchinchi darajalarida foydalanish davrining narxi.

Passiv quyosh isitish tizimi parametrlarining optimal yoki oqilona qiymatlarini aniqlash uchun turli usullar va algoritmlar qo'llaniladi. Ushbu usullardan tadqiqotchilar tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan ko'p parametrli (ko'p mezonli, ko'p maqsadli) optimallashtirish usuli hisoblanadi. Bu usul ko'rib chiqilayotgan ob'ektning matematik modeli va uni tekshirish, parametrik va omilli tahlil, ko'p parametrli optimallashtirish (optimallashtirish funksiyasi va algoritmini tanlash va natijalarni tahlil qilish) va undan keng foydalanishni o'z ichiga oladi (14-rasm).



14-рasm. "Massiv devor" tipidagi passiv quyosh isitish tizimi parametrlarining oqilona qiymatlarini aniqlash algoritmi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, binoni rekonstruksiya qilish paytida yoki umuman loyihalashtirilgan binoni qurish jarayonida Tromb devoridan foydalanishning issiqlik samaradorligiga bevosita ta'sir qiluvchi parametrlar quyidagi parametrlardir: janubga nisbatan binoning yo'nalishi, Tromb devori sirtining fasad umumiy yuzasiga nisbati, shaffof qatlamning issiqlik qarshiligi va ventilyatsiya qilinadigan Tromb devorida havoning massa sarfi. Ushbu parametrlarning optimal yoki oqilona qiymatlarini faqat energiya nuqtai nazaridan aniqlash mutlaqo to'g'ri bo'lmaydi, odatda, bunday hollarda investitsiyalarni qoplash muddati bilan bog'liq iqtisodiy jihat ham o'rganiladi.


Ventilyatsiya qilinmaydigan Tromb devori uchun parametrlarning oqilona qiymatlarini aniqlash bo'yicha o'n uch darajali va uch faktorli sxema tanlangan; ventilyatsiya qilinadigan Tromb devori uchun o'n uch darajali va to'rt faktorli sxema tanlangan. Hisoblashlar to'liq faktorli tajriba usuli yordamida amalga oshirildi. Hisoblashlar davrida toshko'mirning narxi 674 100 so'm/tonna (2021 yil 11-15 oktyabr, AQSH dollari kursi 10700,03 so'm).

Binolar issiqlik himoyasining birinchi darajasi uchun Pareto frontida faqat 22 nuqta mavjud. Isitish uchun solishtirma energiya iste'moli 184,5 kVt / m<sup>2</sup> ni tashkil etadi, bu asosiy qiymatdan 14,8% ga past.


